

Boshlang`ich sinf o`quvchilaridagi bo'shliqlarni to'ldirishda testlardan foydalanish

Sh.Hamroyev

Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta`lim kafedrasi
katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

X.Beknazarova.
katta o'qituvchisi

O`qitish jarayonida ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarning har jihatdan yetuk, turli sohalarga doir bilimlarni egallagan, ko`nikma va malakalarni shakllantira olgan, har bir jabhada raqobatbardosh, komil inson qilib shakllantirishda ta`lim – tarbiya berishning eng qulay va samarali usullarini tatbiq etadilar. Ana shunday jarayon natijasida ta`lim oluvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilimlarniadolatli va haqqoniy baholashga urinadilar.

Baholash nima?

Baholash – ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Bu jarayonning ahamiyatli tomoni shunda – ki, ta`lim oluvchilar ta`lim jarayonidan nimalarni va qay darajada o`zlashtirganliklari aniqlanadi va klegusi maqsad, vazifalar shunga ko`ra rejalaشتiriladi. Bilimlarni baholash uchun test usuli eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Test – inglizcha “sinash, tekshirish, baholash” ma`nolarini anglatadi. Test – ta`lim oluvchilarning egallagan bilim, ko`nikma, malakalarini tekshirishda qo`llaniladigan savol – javoblar to`plami va qisqa standart mashqlar tizimidir.

Test atamasi birinchi marta amerikalik psixolog Jeyms Kettel tomonidan 1890 yilda qo`llanilgan. Testning nazariy asoslarini 1883 yilda ingliz psixolog Fransis Golton ishlab chiqqan. Pedagogik testlarning asoschisi esa amerikalik psixolog R. Torndayk hisoblanadi.

I. Yopiq testlar-o`qituvchilar tomonidan eng ko`p qo`llanilmoqda. Bu test shakli haqida o`qituvchilar ma`lumotga va tajribaga ega bo`lmoqdalar. Bu shaklida test savollariga bir nechta bir-biriga o`xshash javoblar beriladi. Javoblardan bittasi to`g`ri qolganlari to`g`ri javobga o`xshashroq bo`ladi. Masalan:

1. O`zbekiston Respublikasining Davlat bayrog`i qachon qabul qilinganligini aniqlang.

A. 1992 yil 2 mart.

V. 1991 yil 18 noyabr.

S. 1991 yil 8 dekabr.

To`g`ri javob: V.

Yopiq testlarda barcha berilgan javob variantlari ham to`g`ri bo`lishi mumkin:
Bayroqdagi navqiron yarim oy tasvirini qanday ma`no anglatishini aniqlang.

A. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq.

V. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

S. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Ochiq testlar-bu shakldagi testlarni boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ko'p uchratishimiz mumkin. Unda muhim jumla tushurib qoldiriladi va ko'p nuqta qoyiladi. O'quvchilar tushurib qoldirilgan so'zni topadilar. Ochiq test deb nomlanishiga sabab, kishiga o'z hoxishiga ko'ra javob berish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan...sessiyasida tasdiqlangan. To'g'ri javob: VII.

Yoki so'zlar ham tushurib qoldirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi...Kengashining sessiyasida....yil 2 iyul kuni tasdiqlandi. To'g'ri javob: Oliy; 1992.

3. To'ldiruvchi testlar-ochiq va yopiq testlarga nisbatan o'xshash bo'lib bunda savol beriladi va bir yoki bir nechta javob berish o'quvchilardan talab qilinadi. To'ldiruvchi testga misol:

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ranglarini aniqlang.

A. V. Oq rang. S. D. Qizil chiziqlar.

To'g'ri javob: A. Moviy rang. S. Yashil rang.

4. Alternativ testlar-bunda test savoliga o'quvchilar qisqa, lo'nda tarzda ha, yo'q, to'g'ri, noto'g'ri deb javob beradilar.

Bayroqdagi moviy rang Tiriklik mazmuni aks etgan mangu yulduzlar va navqironlik ramzidir.

A. To'g'ri.

V. Noto'g'ri.

To'g'ri javob: V.

5. Moslikka doir testlar-bir narsaning qismlari boshqa narsaning qismlariga mos kelishini aniqlash lozim. Bunda ikkita savolga bir nechta javob bir testda keltiriladi va bir vaqtda ikki savolga ham javob olinadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ida.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbida.

A. Gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviri.

V. O'ng tomonda bug'doy boshoqlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan.

S. Yashil rang-tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

D. Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

E. Navqiron yarimoy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq.

To'g'ri javob: 1. A, V. 2. S, D, E.

6. Izchillikka doir testlar-o'quvchilarning fikr yuritishlari, bilishlarida izchillikni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Bizningcha o'qituvchilar bu shakldagi testlardan ko'proq foydalanishlari diqqatga sazovor.

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'idagi ranglar ketma-ketligini aniqlang.

A. Oq rang.

V. Yashil rang.

S. Moviy rang.

To'g'ri javob: S, A, V.

7. Solishtirish testlari-odatda bir-biriga yaqin bo'lgan ma'no ko'rsatkichlari jadvaldagi ikki ustunga joylashtiriladi, vazifani bajarish ikki ustunda bir-biriga bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlashdan iborat.

1. Savollar	2. Javoblar
<p>A. Bayroqdagi oq rang nima ma'noga anglatishini aniqlang. V. Bayroqdagi moviy rang qanday ma'no bildirishini toping. S. Bayroqdagi yashil rang.</p>	<p>1. Muqaddas tinchlik ramzi. 2. Tabiatning yangilanish ramzi. 3. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli. 4. Poklik, beg'uborlik, soqlik timsoli. 5. Tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va ob-hayot ramzi. 6. Timsollar tilida bu-yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. 7. Amir Temur bayrog'i ham shu rangda bo'lgan.</p>

To'g'ri javob: A. 1, 4. V. 5, 6. 7. S. 2, 3.

8.Zanjirli testlarda- fikrlar davom qildiriladi va davomi zanjir ko'rinishida beriladi, ko'pincha oxirgi javob to'g'ri bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi yulduzlar.

A. Barcha xalqlar uchun ruhoniyligi, ilohiy timsol sanalari.

V. Bayroqdagi 12 ta yulduz tasviri berilgan.

S. Qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadorligini anglatadi.

D. O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida "Nujum ilmi" taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

E. O'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligini bildiradi.

F. Komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilish ramzi sifatida tushunish lozim.

N. Barcha javoblar to'g'ri.

To'g'ri javob: N.

9. Eslatuvchi testlar-bu shakldagi testlarda savol beriladi va to'g'ridan-to'g'ri javob talab qilinadi:

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon qabul qilinganligini toping.

To'g'ri javob: O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi 1992 yil 2 iyul kuni qabul qilingan.

10.Test-repititor-oldin ham viloyatimizdagi qator maktablarda qo'llanilgan f.f.n., dotsent E. Shodmonov va Kasbi tuman XTB xodimlari R. Murtozayev va S. Qurbanovlar tomonidan tayyorlangan Yangi pedagogik texnologiyalar "test-repititor" asarida bu test shakliga kengroq to'xtalib o'tganlar. Uning tuzilishi quyidagicha:


<input type="checkbox"/> A <input type="checkbox"/> V <input type="checkbox"/> S <input type="checkbox"/> D <input type="checkbox"/> YE Ha, yo'q	106-kartochka O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlarini aniqlang. A. Davlat bayrog'i * V. Davlat gerbi * S. Davlat madhiyasi * D. Barcha javoblar to'g'ri *
--	---

* *

Shartli belgilar:
-AVSD javoblar tugmachasi.
Noto'g'ri javob
To'g'ri javob
o javoblar teshikchasi

1,5 vt bateriya bilan ishlaydigan test-repetitor to'g'ri javob topilganda ha chiroq yonadi, yo'qsa aksincha. Bu shakl ko'pchilikka ma'lum miqdorda tanish. Undan unumli foydalanilsa yanada yaxshiroq bo'lar edi.

11. Rasmlı testlar-boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyati keng. QDU boshlang'ich ta'lim kafedrasi mudiri, p.f.n., dots. T. G'afforova va yosh tadqiqotchi Sh. Nurullayevalarning "Boshlang'ich sinflari ona tili darslarida didaktik oyinlar va mustaqil ishlari" o'quv-uslubiy qo'llanmalarida bu shakldagi testlarga to'xtalib o'tilgan. "D" harfini o'rgatishda quyidagicha test tuzib foydalanish mumkin:



To'g'ri javob: deraza

12. Oyin testning-muhim xususiyati oyin tarzida o'tkazilishidir. Bu test shakli haqida p.f.n., dots. T. G'afforova va Sh. Nurillayevalar yuqoridagi asarlarida to'xtalib o'tganlar. Bu testni tuzish uchun bir tarafi toza, ikkinchi tarafi esa suratlari bo'lган qog'ozlardan foydalaniladi yoki toza oq qog'ozning toza tomonining bir qismiga savol, ikkinchi qismiga savolning javobi yoziladi. Shundan so'ng qog'oz arrasimon chiziq boylab ikki qismga ajratiladi. Bunday qog'ozlardan bir nechtasi tayyorlanib o'quvchiga bitta savol yozilgan qog'oz va javob yozilgan bir nechta qog'oz beriladi. O'quvchilar savolni o'qib shu savolning javobi yozilgan qog'ozni topishi va ikkala bo'lakni birlashtirish lozim. Agar javob to'g'ri bo'lsa ikkala bo'lak bir-biriga mos keladi va qog'ozning orqa tomonida ham bir butun surat hosil bo'ladi. Bu test bolalarni qiziqishini oshishiga, fikrlash, erkin mulohaza yuritish ko'nkmalarini rivojlanishiga imkon beradi.

Shuningdek, matnli, vaziyatli, matritsa shaklidagi testlar ham mavjudligini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Pedagogik test tuzish chuqur bilimni, tajribani talab qiladi. To'g'ri kelgan kishi test tuzishi, sinovdan o'tkazmasdan amaliyatga joriy qilishi unchalik ham to'g'ri ish emas. Pedagoglarimiz o'quvchilar bilimini baholashda har doim "nimani baholash kerak?" degan savolga javob izlaydilaasosiy r. Bu savolga pedagogik texnologiya "Kursni o'qitish va o'rganish maqsadi va vazifalariga erishish darajasini" degan javobni beradi.

Pedagogik adabiyotlarda testni tuzishda harakatlar izchilligi quyidagicha bo'lishini ko'rsatib o'tilgan:

- test topshiriqlari miqdorini belgilab olish;
- umumiylar va xususiy maqsadlarni aniqlash;
- testning xususiyatini aniqlash;
- testni tuzib chiqish;
- testni ekspertizadan o'tkazish;

testni sinov-tajribada tekshirib ko'rish;
test sifati ko'rsatkichlarini aniqlash.

Shu komponentlar bajarilsagina amaliyotda testdan foydalanish lozim. Buni ilmiy tadqiqot ishlarimiz ham ko'rsatmoqda.